



YOSHLAR NUTQIDA JARGON VA ARGOLARNING IFODALANISHI

TerDU talabasi

To'xtayeva Sarvinoz Sherali qizi

Ilmiy rahbar: Dilrabo Ergasheva

Annotatsiya: O'zbek tili leksikonida mavjud so'zlar, ularning qo'llanish doirasi, chegaralangan-chegaralanmaganlik xususiyatlari bo'yicha leksik tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, dialekt, argo, jargon, umumxalq tili, termin, leksika,

Har bir tilning lug`at tarkibi nihoyatda boy hisoblanadi. Undan tashqari, ular doimiy o'sishda va rivojlanishda bo'ladi. Tillarning boyligi, birinchidan, uning doimiy harakati va o'sishida bilinsa, ikkinchi tomondan, uning ichki va tashqi manbalardan ratsional foydalana olganligida bilinadi. Kompyuter asriga qadam qo'ygan ekanmiz, ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarida yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va atamalarni yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek tili lug`at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta`sir qilib kelyapti. Ular o'zbek tilining ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan o'zbek xalqi o'zining og`zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelyapti

Har bir til o'zining boy lisoniy vositalariga ega. Tildagi so`zlarning jami uning leksikasini, yani lug`at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha lexikos lug`atga oid va logos talimot) tilshunoslikning lug`aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo`limidir.

Tilimizda so`zlashuvchi barcha kishilar nutqida birdek ishlatiladigan so'zlar umumxalq leksikasi deb yuritiladi. Bularidan tashqari, barchaning nutqida ishlatilmaydigan, shevalarga, kasb-hunarga, malum ijtimoiy guruuhlar nutqiga, ilm-fan sohalari vakillari nutqiga xos so'zlar ham mavjudki, ular istemol doirasi chegaralangan leksikani tashkil etadi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

Dialektizmlar. Malum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatiladigan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so`zlar dialektizmlar deyiladi.

Kasb-hunar leksikasi ham adabiy tilga nisbatan chegaralangan so'zlar qatoriga kiradi. Chunki ular ham malum bir kasb-hunar vakillari nutqidagina ko`p ishlatilib, boshqa kishilar uchun tushunarsiz bo'ladi.

Terminlar. Ilm-fan, texnika, sanat sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir manoli so`zlardir[2].

Jargon ma'lum ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh vakillari nutqida qo'llaniladigan, bazan yashirin manoli bo`lgan so`zlardir. Bu so`zlar ham chegaralangan leksik



birliklar qatoriga mansub bo`lib, jargonlar yuqori sinf vakillari nutqida qo`llanilib kelingan. Argolar esa, yashirin manoli so`zlardan iborat. Jargon so`zi qadimda umuman boshqa ma`noni anglatgan. U fors tilidan olingan bo`lib, "циркон" - ya`ni - "цар" - тилло," гун " - tus, rang degani. Ana shunday " tillo tusli " toshlarni ular "jargon" deb atashgan. Bugungi kunda maxsus guruuhlar o`rtasidagi o`zaro qo`llaydigan maxsus tilga nisbatan jargon termini qo`llanilib kelinmoqda.[2]

Aslida esa "argo" fransuz tilidan olingan bo`lib, "argot" – quflangan, yopib qo`yilgan degan manolarni anglatadi, huddi shunday "jargon" so`zi ham fransuz tilidan olingan bo`lib, jargon - malum bir ijtimoiy guruh azolarining o`zaro muloqot yuritishida xizmat qiladigan nutq turi deb qaraladi. Bularni anqilash va faqlash uchun quyidagi matnni ko'rib chiqamiz:

Darsdan keyin starosamiz iltimos qilgani uchun barcha kursdosh bir joyda yigilib, uning kelishini kutardik.

- Kursdoshlar, sizlarda bir maslahatlari ish bor. Kursdoshimiz Oyдинning oilaviy sharoitida biroz qiyinchiliklar bo`layotgani, onasining rak kasaliga chalinganidan barchangiz xabardor bo`lsangiz kerak. Bugun unga qongiroq qilib ahvolini bildim, qanday yordamimiz tegishi mumkinligini so`radim. Onasini operatsiya uchun chet elga olib ketishayotganini va agar imkonli bolsa biroz moddiy tomonlama yordam qilishimizni ming hijolatda aytdi. Har holda 3 yillik kursdoshlarmiz, biroz yordam qilish qolimizdan kelar.

Negadir, shu vaziyatdagi ba`zilarning yuz ifodasiga qarab ensasi quotayotganini bilish qiyin emasdi. Gap nima haqidaligini avvalroq anglab "quyon" bo`lganlar ham topildi. Ayni shu damda, bir necha kun oldin guruhimizda bolgan bir voqeа yonimga tushdi.

Xullas, bundan bir yarim haftalar oldin guruhimizda semesterni "yopgan" imizni nishonlab, otirish qilish haqida gap chiqdi. Tashkilotchilar "beqiyos 5lik" ya`ni guruhimizdagi "Zorro komandasasi" edi.

- Oxirgi yilimiz, yaxshiroq nishonlashimiz kerak, axir talabalikdan esdalik uchun nimadir qolsinda-dedi "5"likdan biri.

- Albatta-da, ee , shahardagi eng yaxshi restoranda o'tkazishimizni o'ylab turibman, -deya gap qo'shdi yana biri.

Boshqalardan so'rash yo'q, faqat o'zining cho'ntagiga qarab gapi rayotgan bu "5"likning gapi kopchilikka yoqmagani bilinib turardi.

To'g'risiyamda, guruh talabalarining deyarli teng yarmi "vozdux"ga kun ko'rар, o'sha pulning barchasini bir o'tirishdayoq sarflashni to'g'ri deb bilmasdi.

Vaholangki, "shamol" bo`lganlar orasida, o'sha kuni "sher" bo`lib "liderlik"ni talab qilayotgan kursdoshlarimiz ham yo'q emasdi. Xayollarimni yig'ib olib, yonimda bor pulni starosamizga berdim va uyga qarab yo'l oldim. Shu vaqtida



telegramdan xabar keldi. Kirib javob yozib, orqaga qaytish belgisini bosganimda, beixtiyor "Oqibatli kursdoshlar" nomli guruhimizga ko'zim tushdi. G'alati bo'ldim...[3]

Ushbu matnda qo'llangan jargon/argolar:

1. quyon bo'lganlar – hech kimga aytmasdan odamlar orasidan g'oyib bo'lib qolishga nisbatan aytildi ;
2. "Semestr"ni yopganligi – o'quv yilining bir qismini, ya'ni sessiyalardan yaxshi o'tganligiga nisbatan aytilgan;
3. Beqiyos "besh"lik – guruhdagi eng zo'r beshta talabaga aytilgan;
4. "Zorro" komandasi – guruhda o'zini eng zo'r deb biluvchi, o'z guruhini tuzib olganlar;
5. "Vozdux"ga kun ko'rар edi – ortiqcha puli yoq deyilyapti. Ya'ni óz topgan puli kunlik xarajatlaridan ortmaydi;
6. "Sher" bo'lmoq – guruhda o'zini eng zo'r qilib ko'rsatmoq;
7. Liderlik – zo'r bo'lish, hammadan ustun deb hisoblamoq;
8. "Oqibatli kursdoshlar" – matn mazmunidan kelib chiqqan holda piching , keratiq ma'noda qo'llangan.

Ushbu misollar orqali shuni aniqlashimiz mumkinki, argo/jargonlar ma'lum bir guruh, jamoa orasidagina anglashiladigan so'z yoki so'z birikmalari ekan.

Hozirgi kunda yoshlar tili, umuman jargonlarni sotsiolingvistika o`rganadi. Til qatlamlariga kiruvchi jargon, argo, slenglar esa aynan shu jamiyat qatlamlarining tili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev ba bosqalar – "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent 2009-yil;
2. Hilola Bolikulova – "Italian tili jargonlari" – Samarqand 2020-yil;
3. M. Abduzairova – "Oqibatli kursdoshlar" – hikoya;
4. Internet manbasi: www.wikipediya.it
5. Юсупова, О. (2023). DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).